



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Наргиза Музафаровна Бабаева Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
Maksuda Valeriyevna Israilova Sog'lomlashtirish turizmining mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
Dilshod Usmanovich Ruzmanov Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
Фарход Абдивахидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
Parvina Asliddin qizi Xolmatova Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
Xasan Ibragimovich Turdibekov O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
Aziza Yusufbekovna Talibova O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
Нодир Нозимович Негматов Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
Gulshan Akmalovna Abduvohidova Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ

Nigina Marupovna Usmanova – SamISI dotsenti v.b., PhD,
Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova – SamISI, MMN-124 guruh talabasi

QARORLAR QABUL QILISH JARAYONINI TAHLIL QILISH VA KORXONADA BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarining qaror qabul qilish jarayoni tahlil qilinib, mavjud muammolar o‘rganilgan. Boshqaruvni takomillashtirish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: qaror qabul qilish, takomillashtirish, korxonalar, boshqaruv.

Kirish. Hozirgi globallashtirish va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida korxonalar oldida turgan asosiy vazifa – tezkor va samarali qarorlar qabul qilish orqali raqobatbardoshlikni saqlashdir. Qarorlarni qabul qilish jarayoni har qanday korxonaning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Korxonalarda noto‘g‘ri qaror qabul qilish boshqaruvning zaiflashishiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, qaror qabul qilish korxonalar boshqaruvining eng asosiy funksiyalaridan bo‘lib, u resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, strategik rejalarni amalga oshirish va bozor sharoitlariga tezkor moslashishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun qarorlarni tizimli tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Korxonalar boshqaruvining samaradorlik darajasi noto‘g‘ri qabul qilingan qarorlar ta’siri natijasida pasayib boradi. Qabul qilinayotgan qarorlar noto‘g‘ri bo‘lishiga esa qator mavjud muammolar sabab bo‘ladi. Bulardan asosiylari yetarli darajada ma’lumotlarni tahlil qilmaslik, vaqt yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanmaslik kabi muammolardir. Quyida qaror qabul qilish sxemalarining turli modellari, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, boshqaruvni takomillashtirish uchun ilg‘or yondashuvlar va texnologiyalar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qaror qabul qilish jarayoni boshqaruv nazariyasi va psixologiya sohasida uzoq yillar davomida o‘rganib kelinmoqda. Mazkur sohada asosiy e’tibor qaror qabul qilish bosqichlari, strategiyalari va jarayon samaradorligiga qaratiladi. Bu sohada dunyo olimlari qator tadqiqotlar o‘tkazib, ular erishgan natijalari haqida batafsil asarlarida yoritib o‘tishgan. Shulardan biri Simon Hebert qaror qabul qilishni “cheklangan ratsionallik” doirasida tahlil qilgan. U qaror qabul qilish jarayonini muammoni aniqlash, ma’lumot yig‘ish, variantlarni ishlab chiqish va qaror qabul qilish bosqichlariga ajratgan. Simonning yondashuvi qaror qabul qilish sxemasi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qildi [1]. Keeney va Raiffa tadqiqotlari qaror qabul qilish jarayonidagi ko‘p maqsadli modellarni yoritib beradi. Mualliflar qaror qabul qiluvchilar tomonidan qiymat va afzalliklarni baholash mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Ushbu asar qaror qabul qilish jarayonini modellashtirish uchun amaliy asos yaratadi [2]. Mintzberg va uning hamkasblari qaror qabul qilish jarayonlarining strukturasi jihatlarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqoti qaror qabul qilish jarayonidagi kutilmagan o‘zgarishlar va ularga moslashish zaruratini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv muammolarni hal qilishda moslashuvchanlikka e’tibor qaratadi [3]. Shuningdek, mahalliy olimlardan Karimov, o‘z tadqiqotini O‘zbekiston iqtisodiyotidagi qaror qabul qilish jarayonini samarali boshqarish masalasiga bag‘ishlangan. Muallif innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali qaror qabul qilish samaradorligini oshirishning usullari va texnikalarini tavsiya qiladi. Asarda boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilishni modellashtirish va optimal qarorlarni ishlab chiqish metodologiyasi chuqur tahlil qilingan [4]. Yuldashev O‘zbekiston sharoitida qaror qabul qilish jarayonlarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan. Muallif iqtisodiy va boshqaruv sohalarida qaror qabul qilish jarayonidagi milliy xususiyatlarni tahlil qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jarayonida kuzatish, nazariy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qaror qabul qilish – bu muayyan muammoni hal qilish uchun eng

maqbul variantni tanlash jarayoni hisoblanadi. Qaror qabul qilish jarayoni muammoni aniqlashdan boshlab, muqobil variantlarni baholash va eng maqbulini tanlashgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muammoni aniqlash. Tashkilot yoki shaxs oldida turgan muammo yoki imkoniyatni aniqlash.
2. Ma’lumot to‘plash. Muammoni tushunish va yechim topish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish.
3. Muqobil variantlarni ishlab chiqish. Muammoni hal qilish mumkin bo‘lgan variantlarni aniqlash.
4. Variantlarni baholash. Har bir variantning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish.
5. Eng yaxshi variantni tanlash. Baholash natijalariga ko‘ra eng maqbul variantni tanlash.
6. Qarorni amalga oshirish. Tanlangan variantni hayotga tatbiq etish.
7. Natijalarni baholash. Qaror qabul qilinganidan keyin uning samaradorligini baholash va zarur bo‘lsa, tuzatishlar kiritish.

Qaror qabul qilish sxemasi yuqoridagi bosqichlarni izchil va tizimli ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu sxema qaror qabul qilish jarayonini samarali boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi. Qaror qabul qilish imkoniyati muqobil yo‘llari bo‘lganda vujudga keladi va rahbar ulardan birini, eng maqbulini tanlaydi. Qarorning eng samarali variantini topish uchun rahbar “yetti o‘lchab bir kes” maqoliga rioya qilishi darkor. Qabul qilinadigan qarorning oqilligi bir necha omillarga bog‘liq. Ular:

- qaror qabul qilish jarayonida axborotning to‘laligi va sifati;
- qaror qabul qiluvchi rahbarning shaxsiy sifati;
- qaror qabul qilishda tashkiliy masalalarning oqilona yechilish darajasi (mutaxassisni jalb etish, tizimning takomillik darajasi, nazorat qilish va bajarilish darajasi).

Korxonalarda qaror qabul qilish ikki asosiy modelda amalga oshiriladi:

1. Markazlashgan boshqaruv: Barcha muhim qarorlar yuqori darajadagi rahbariyat tomonidan qabul qilinadi. Bu yondashuv kuchli muvofiqlikni ta‘minlaydi, ammo qarorlarni qabul qilish jarayoni sekinlashishi mumkin [6].
2. Detsentralizatsiyalashgan boshqaruv: Bu modelda qaror qabul qilish vakolatlari quyidagi bo‘g‘inlarga taqsimlanadi, bu esa tezkorlikni oshiradi va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi [7].
3. Gibridd boshqaruv: Bu ikki modelning kombinatsiyasi bo‘lib, korxonalar ko‘pincha samaradorlikni oshirish uchun ushbu modeldan foydalanadilar [8].

O‘zbekiston sharoitida qaror qabul qilish jarayonlari asosan yuqoridan pastga qarab boshqarish tizimiga asoslangan. Ko‘p hollarda rahbarlarning shaxsiy tajribasi, intuitiv yondashuvlari ustunlik qiladi. Ushbu holatning sababi kadrlarning malaka darajasi va tizimli axborot texnologiyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Islomov J. tadqiqotlariga ko‘ra, mahalliy korxonalarda qarorlar ko‘pincha subyektiv qarashlar asosida qabul qilinishi, bu esa samaradorlikni pasaytirishini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish qarorlarining sifatini oshirish imkonini berishini bilish mumkin [9].

O‘zbekiston korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda turli usullar qo‘llaniladi. Rustamova S. tadqiqotida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning “3C modeli” taklif etilgan bo‘lib, bu model kreativ fikrlash, jamoaviy maslahatlashuv va matematik hisob-kitoblarga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Qaror qabul qilish sxemasi, ayniqsa murakkab muammolarni hal qilishda, aniq va tizimli yondashuvni talab qiladi. Qarorlarni avtomatlashtirish va axborot tizimlaridan keng foydalanish qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada samaraliroq qiladi. Chunki noto‘g‘ri qabul qilingan qarorlarning aksariyati noto‘liq ma’lumotlar yoki yetarlicha variantlar baholanmaganligi tufayli yuzaga keladi [10]. Quyidagi 1-jadvalda korxonalarda qaror qabul qilish jarayonining tahlilini ko‘rsatadi:

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, qaror qabul qilish jarayonida vujudga keladigan muammolar ma’lumotlardan samarali foydalanmaslikdan yuzaga keladi va bu muammolarga zamonaviy yondashuvlar orqali yechim topish mumkin.

Tahlil natijalariga ko‘ra, qaror qabul qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish sama-

1-jadval

Korxonalarda qaror qabul qilish jarayonining asosiy bosqichlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha takliflar jadvali

№	Bosqichlar	Muammolar	Takliflar
1	Muammoni aniqlash	Ma'lumot yetishmasligi	Axborot texnologiyalarini qo'llash
2	Ma'lumotlar yig'ish	Ma'lumotlarning noto'g'ri tahlil qilinishi	Zamonaviy vositalaridan foydalanish tahlil
3	Qarorlarni amalga oshirish	Resurslarni noto'g'ri taqsimlash	Rejalashtirish tizimini rivojlantirish

radorlikni 30-40% oshirish imkonini beradi. Hisobotlarni avtomatlashtirish va tahliliy dasturlarni joriy etish vaqtni 20% tejashga imkon beradi. Resurslarni to'g'ri rejalashtirish orqali korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlarga asosan bu ko'rsatkichni 25-30% ga oshirishga imkon beradi.

Quyidagi diagramma qaror qabul qilish jarayonining samaradorlik ko'rsatkichlarini taqqoslaydi:

2-jadval

Qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligi bo'yicha an'anaviy va innovatsion usullarning qiyosiy jadvali (foizlarda)

Ko'rsatkichlar	An'anaviy usul (%)	Innovatsion usul (%)
Qaror qabul qilish tezligi	65	90
Resurslarni boshqarish	60	85

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, qaror qabul qilish jarayonida hozirgi axborotlashgan jamiyatda zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish samaradorlikni bir necha marotabaga oshiribgina qolmay, rahbarlarning mavjud mas'uliyatlarini yengillashtirishga ham yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston korxonalarida qaror qabul qilish tizimini optimallashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, jamoaviy qaror qabul qilish tizimini shakllantirish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Jamoaviy qaror qabul qilish mexanizmini rivojlantirish orqali qarorlarning sifatini oshirish mumkinligi isbotlangan. Bu usul rahbarlarning shaxsiy subyektiv qarashlarini cheklaydi va xodimlarning ishtirokini rag'batlantiradi. Shuningdek, tahliliy ma'lumotlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilishning joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalar real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni osonlashtiradi.

Hozirgi sharoitda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, jamoaviy qaror qabul qilish usullari va innovatsion boshqaruv yondashuvlari xodimlarning ishtirokini oshiradi va muammolarni ko'p tomonlama hal qilish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, qaror qabul qilish jarayonlarining takomillashuvi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amalga oshirish korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu sababli, qaror qabul qilish jarayonini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirishni tavsiya etamiz:

Birinchidan, tahliliy vositalar va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni joriy etish.

Ikkinchidan, qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish uchun zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish. Misol uchun, ERP (Entrprice Resource Planning) tizimlarini joriy qilish korxonalar ichki jarayonlarini avtomatlashtirish va qaror qilish tezligini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, xodimlarning malakasini oshirish uchun doimiy treninglar tashkil etish.

To‘rtinchidan, muammolarni hal qilishda guruhli qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish.

Beshinchidan, resurslarni samarali rejalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish va uni strategik rejalashtirish bilan integratsiyalash.

Oltinchidan, korxonalarda strategik rejalashtirish tizimlarini joriy etish orqali uzoq muddatli maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Simon H. A. “Administrative Behavior: A Study of decision-making Processes in Administrative Organization.” 1997.
2. Keeney R. L., Raiffa, H. “Decisions with Multiple Objectives: Preferences and Value Trade-Offs”. 1993.
3. Mintzberg H., Raisinghani D., Theoret A. “The Structure of Unstructured Decision Processes”. 1976.
4. Karimov A. R. “Qaror qabul qilishning samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv yondashuvlari. 2018.
5. Yuldashev M. “Qaror qabul qilishning mintaqaviy strategiyalari: O‘zbekiston tajribasi”. 2020.
6. Mintzberg H. “The Rise and Fall of strategic planning”. Free press. 1994
7. Kaplan R. S, Norton D. P. “The balanced scorecard: translating strategy into action”. Harvard Business Review Press. 1996.
8. Robbins S. P, Coulter M. “Management”. Pearson Education. 2021.
9. Isломov J. A. “Qaror qabul qilish tizimlarini takomillashtirish”. Toshkent-Universitet nashriyoti. 2020.
10. Rustamova S. X. “Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillashtirish”. 2024. Internet saytlar:
11. www.researchgate.net
12. arxiv.uz

<p>Н.Усманова, М.Нишонова Анализ схем принятия решений и совершенствование управления в организациях Аннотация. В этой статье анализируется процесс принятия решений предприятиями и изучаются существующие проблемы. Даны предложения по совершенствованию управления и повышению эффективности принятия решений. Ключевые слова: принятие решений, совершенствование, организация, управление.</p>	<p>N.Usmanova, M.Nishonova Analysis of Decision-Making schemes and improvement of enterprise management Abstract. This article analyzes the decision-making process of enterprises and examines existing problems. Proposals have been made to improve management and enhance decision-making efficiency. Keywords: decision-making, improvement, enterprise, management.</p>
---	--

Gulshan Akmalovna Abduvohidova – SamISI assistent-stajyori

TASHKILOT INTELLEKTUAL RESURLARINI BOSHQARISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari, zamonaviy biznes sharoitida tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada, intellektual resurslarni boshqarishning asosiy tamoyillari, ularning samarali ishlatilishi va tashkilotning umumiy strategiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada tashkilotlar uchun innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash, bilim va tajriba almashish jarayonlarini optimallashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: intellektual resurslar, bilimlar, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv samaradorligi, intellektual faoliyat, xodimlar malakasi, raqobatbardoshlik, intellektual salohiyat.

Kirish. Bugungi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarda yuqori samaradorlikka erishish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun intellektual resurslarni boshqarishning muhimlik darajasi oshib bormoqda. Tashkilotlar bu resurslardan samarali foydalanishlari orqali o‘z strategiyalarini shakllantirib, yangi imkoniyatlarga erishadi va bozordagi o‘rnini mustahkamlaydilar. Intellektual resurslarni boshqarish jarayoni faqatgina bilimlarni yig‘ish yoki ulardan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki ularni tizimli ravishda rivojlantirish va

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.